

Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 ОКТЫАВР
№33

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
33-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
33-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-10**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 33-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Jo'rayeva Gulnora Safarovna, Xurramova Yulduz Eshmuminovna	
TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA INNOVATION	
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	7
2. O'rmonov G'olibjon Solijonovich	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KREDIT-MODUL TIZIMINING AHAMIYATI	9
3. Xo'jamova Yulduz Yusupovna	
MUOMALA MADANIYATI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING SAMARALI	
TA'SIR VOSITASI SIFATIDA.....	10
4. Эргашев Бобир Боҳодирович	
ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАСБ ТАЪЛИМИ ЙЎНАЛИШИ	
ТАЛАБАЛАРИНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДИКАСИ	12
5. T.Ergashev	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TIPIK XATOLARNING OLDINI OLISHDA AXBOROT	
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	14
6. Solijonova Kibiryo Muzaffarjon kizi	
WRITING IN METHODS OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE	17



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Jo'rayeva Gulnora Safarovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
12-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi
normurodov.oibek@mail.ru

Xurramova Yulduz Eshmuminovna

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani
6-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablarida tasviriy san'at o'quv jarayoniga, xususan dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tafbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, texnologiya, ilmiy, ta'lif, o'qitish texnologiyasi, dars, ko'nikma, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san'at o'quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar taylorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-tehnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lif bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzuksizligini ta'minlash, tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish, umumiy o'rta ta'lif maktablarida axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanda rivojlantirish, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliv ta'lif muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi. Yuqorida fikrlardan ko'rinish turibdiki umumiy o'rta ta'lif maktablar tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lif tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern yangilangan, zamonaviy, tekor o'sish) o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limga innovatsion (inglizcha innovation yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lif mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalgaligi, ta'lif mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Ta'lif tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tafbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlardan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bu esa o'z navbatida tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtualtexnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'rzasasi, ma'ruza-konferentsiya, axborothli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, shar-



hlovchi ma'ruza, on-line ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv jarayoniga, xususan dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o'ziga xos hisoblanadi. Interfaol so'zi inglizcha so'z bo`lib, «inter» o'zaro va «act» harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiylarini mazmuni interfaol ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga "o'qituvchi" va o'quvchining maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo`lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo`lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. O'qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi. Interfaol o'qitish o'quvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida hizmat qiladi. O'qituvchining jadal faoliyati o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo`lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi, o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti o'quvchi hisoblanadi; muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat; o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo`lgan o'quvchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rinni tutadi, o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni o'quvchidan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. J. O. Tolipova. "Pedagogik kvalimetriya". T.: 2015.
2. M.Mirsolieva., G.Ibragimova . Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. T. 2015
3. S.Abdirasilov., N.Tolipov Dasgohli rangtasvir. "Iqtisod-moliya" T.: 2010



TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KREDIT-MODUL TIZIMINING AHAMIYATI

O'rmonov G'olibjon Solijonovich
Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi
O'quv bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: maqolada ta'lism sifatini oshirishda kredit-modul tizimining ahamiyati hamda uning afzalliliklari xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: ta'lism sifati, kredit-modul tizimi, kredit texnologiyasi.

Mamlakatimizda oliy ta'lism tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lism sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy ta'lism bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu, shubhasiz, ta'lism tizimini isloh qilish, milliy va xalqaro mehnat bozori talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktabridagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lism muassasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds Worlds University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lism muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lism muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi.

Kredit-modul tizimi – bu ta'lismni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'chovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida quyidagi asosiy masalalarga e'tibor beriladi:

- talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash;
- talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit texnologiyasi murakkab tizim. Uning muvaffaqiyatlari ishlashi ko'plab omillarga, jumladan, o'quv moddiy ta'minot, xalqaro standartlarga javob beradigan tayanch darslik, talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish uchun muayyan shart sharoit (kompyuter sinflari, videozallar, elektron doskalar)ga bog'liq. Kredit tizimiga asoslangan o'quv jarayonida ta'lism oluvchi va ta'lism beruvchi pozitsiyalari ham o'zgaradi. Talaba passiv qabul qiluvchi pozitsiyasidan o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylanadi. Ayni paytda o'qituvchi roli ham keskin o'zgarib, u nafaqat axborot uzatuvchi, balki talabaga axborotni izlab topish, uni qayta ishlash, olgan yangi bilimlarni amaliyotda qo'llashda yordam beruvchi vazifalarini bajaradi.

Bundan tashqari, ta'lismning kredit tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Chunki bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi va talabalar kredit yo'qotmasdan bir universitetdan boshqasiga o'tishi mumkin. Aynan ushbu tizim o'zbekistonlik talabalarning ilg'or xorijiy universitetlarda o'qishini davom ettirishiga hamda murakkab byurokratik to'siqlarni olib tashlashga imkoniyat yaratadi.

Ta'lism kredit texnologiyasini joriy qilishni o'rganishdagi tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli dunyo mamlakatlarida o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari mavjud. Ta'lism kredit texnologiyasining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi ko'pgina dunyo mamlakatlarining ta'lism sistemasida keng tarqalganligida ko'rningmoqda, chunki, ta'lism dasturlari yo'nalişlarining taraqqiy etishi talabalarni bilimni mustaqil o'zlashtirish va mustaqil ishi ijodiy faoliyat darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi, demak, ta'lism sifati to'liq oshadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xorijiy mamlakatlar oliy ta'lism tizimi rivojlanishidagi kredit-kredit ta'lism sistemasini O'zbekiston oliy ta'lism tizimiga joriy etilishi quyidagi afzallikkarga ega bo'ladi: mutaxassislarni jahon standartlari darajasida tayyorlash imkoniyati; o'quv jarayonini tezkor va egiluvchan tarzda rejalashtirish; auditoriya va mustaqil ishlash orasida optimal munosabat o'rnatish; o'quvchida mustaqil ta'lism olishga va mustaqil rivojlanishga ko'nikma hosil qilish; kredit va diplomlarni ikki tomonlama tan olish, talabalarga dars berishni hamkorlikda tashkil etish.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism tizimi ni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni.
2. O'rinnov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushuncha va qoidalar. – T.: 2020



MUOMALA MADANIYATI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING SAMARALI
TA'SIR VOSITASI SIFATIDA

Xo'jamova Yulduz Yusupovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
22-sonli MTT mudirasi
yuxujamova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada muomala madaniyatining shakllantirishning o'ziga xos usullari hamda muomala madaniyatining axloqiy ko'rinishlari xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: muomala madaniyati, muloqot, axloqiy fazilatlar, munosabat.

Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko'rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta'sir o'tkazadilar va ta'sirlanadilar. Muomala inson faoliyatining ruhiy Hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan birqalikda namoyon bo'ladi, Shaxslar faoliyati motivatsiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'y-fikrlari, istaklari yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi. Shaxslararo munosabatlarni, muloqot madaniyatini qay darajada shakllanishiga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Binobarin, muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rin egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojlarni jamiyatda yashash va o'zini shahs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Muloqot odamlarning birqalikdagi faoliyatları, ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliliklari mobaynida bir-biri bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.

Muomala madaniyatida xushfe'llik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, beozorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik singari axloqiy me'yorlar muhim sanaladi. Xushfe'llik. Ushbu axloqiy xatti-harakat me'yoriylik nuqtai-nazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvoffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi. Atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'kinchiligin anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi.

Xushmuomalalik ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra xushfe'llikkka nisbatan keng qamrovliroqdir. U insonning ham xatti-harakati, ham muloqoti natijasida vujudga keladi. xushmuomalalik qat'iy tartibga asoslangan axloqiy me'yor hisoblanadi: u o'zgani ranjitmaslik, birovga yomon so'z aytmaslik, bahs-munozaraga kirishganda muxolifni hurmat qilish, qo'rslik va chapanilikdan xoli bo'lish hamda suhbatlashganda ehtiroslarga berilmaslikni talab etadi.

Muloyimlik barcha mutafakkirlar nazarida kishining maqbul sifatlaridan biri, deb e'tirof etiladi. Bu fazilat achchig'lanmaydigan, ehtiyotkor, so'zini o'ylab gapiradigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Beozorlik. Insonlarning tabiatidagi xusumat, adovat, g'azab kabi illatlar bu kabi odamlardan xoli. Ular barcha mas'uliyatni o'z zimmalariga olsalar-da birovga yomonlikni ravo ko'rmaydilar, og'irliliklarini o'zgalarning zimmasiga yuklamaydilar. Beozor kishilar matonatli bo'la turib, o'zidan ojiz kishilarga qahr bilan muomala qilmaydilar.

Muomala madaniyatining muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa muloqot jarayoni ham yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi ular samimiy bo'lishlari lozim.

Muomala axloq ko'rki sanaladi. Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi, uning boshqalarga qilayotgan muomalasidan ma'lum bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, muomala insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Bir-birimizga bo'ladigan muomalamiz, munosabatimizning zamirida ham chiroyli muomalaning shartlari yotadi.

Muomala sirlaridan yana biri - bu kishilar bilan munosabatda jilmayishdir. Mashhur Amerikalik psixolog D.Karnegi fikricha, jilmayganda biz bir-birimizga yaxshilik qilish istagida turamiz. Masalan, transport haydovchilari, aholiga xizmat ko'rsatish xodimlari, oshpazlar, sartaroshlar, sotuvchilar samimiy bo'lsalar, kamtar,xushmuomala bo'lsalar, "biz sizga xizmat ko'rsatishdan mammunmiz" degan so'zlarni ishlatsalar, ularning obro'lari ortib, muxlislari ko'payadi, kishilar



ularning xizmatlaridan ko‘proq foydalanadilar.

Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo‘lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro‘-e’tibor topadi. Aksincha, sergaplik hech qachon kishiga obro‘ keltirmaydi. Ayniqsa, mahmadonalik yosh bolaga xos xususiyat bo‘lib, kattalar uchun bu qusur insonni doimo obro‘sizlantirgan. Shuning uchun ham o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tilga, so‘zga hurmat bilan yondoshishni ta’kidlaganlar.

S h a r q n i n g

buyuk notiqlaridan bin Husayn Koshify so‘z qadri, kamgaplilik to‘g‘risida ibratlil flkrlami bayon etgan: «*Haq zabon tig‘i haq g‘uzorlikda noqildur ango tez-tez tig‘ zaboni birla sazo bermak kerak*» yoki «*Haq vaqtiki so‘zlar aytursizlar yaxshi so‘zdin bo‘lakni aytmangizlar va ko‘p so‘zlamak ko‘ngilni qaro qilur, xor aylar*» -deydi va inson har doim yaxshi so‘zni so‘zlashi lozimligini uqtiradi. Koshify bunday kishilami hech bir so‘zida qadr- qimmati yo‘q, og‘zidan nima chiqayotganini bilmaydigan kishilardir, deb baholaydi. Ular e’tiborsiz so‘z so‘zlovchilardir. Bu kishilar jununga sherga ittifoqchi sanaladi. Shunday qilib, muomala madaniyati odamlarning jamiyatda o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial – birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo‘lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumдорligi va amaradorlikning muhim omillaridandir.

Foydalanaligan adabiyotlar.

1. Husanov B, V. G‘ulomov V. Muomala madaniyati. – T.: 2009
2. G‘oziyev E. Muomala psixologiyasi. – T.: 2000



ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАСБ ТАЪЛИМИ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДИКАСИ

Эргашев Бобир Боҳодирович

Наманган мухандислик технология институти дотценти

Телефон: +998(93)9420002

boburjon.ergashev1@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада Касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини таълим-тарбия жараёни субъектларининг келажакдаги натижалари ва педагогик фаолиятнинг оқибатлари ҳақида стратегик тафаккурни шакллантиришга, шунингдек, унинг асосида стратегик режалаштиришни амалга оширишга ҳамда профессионал таълимни модернизатсия қилиш нуқтаи назаридан ўрта ва узоқ муддатли истиқболга йўналтирилган профессионал таълим битирувчиси рақобатбардошлигини шакллантириш педагогик стратегиясини амалга оширишга имкон берадиган ҳаракат режасини таркибий қисмларини ишлаб чиқиши ва асослашдан иборат.

Калит сўзлар: профессионал таълим, йўл харитаси, битирувчи, рақобатбардош кадр, таълим тизими, компонент, стратегик.

Замонавий педагогик тадқиқотларда педагогик тизимни тавсифлашда “шарт” тушунчasi жуда фаол ишлатилганлиги сабабли, “педагогик шарт-шароитлар” ҳақида алоҳида гапиришда маъно бор [1-2].

Тадқиқотимиз давомида “педагогик шароитлар” концепсиясини комплекс таҳлил қилиш ўрганилаётган тоифани тушунишимиз учун муҳим бўлган бир қатор қоидаларни таъкидлаш имконини беради:

1) педагогик шарт-шароитлар ҳар қандай педагогик тизимнинг мажбурий қисмидир;

2) педагогик шарт-шароитлар таълим-тарбия жараёни субъектларининг ўзаро ҳамкорлиги, шунингдек, ОТМ муҳитининг мақсадга мувоғиқ тарзда ишлаб чиқилган чора-тадбирларида ифодаланган касбий-таълим муҳитининг имкониятларини ифодалайди;

3) педагогик шартларнинг таркибий компоненти ички ва ташқи элементлар билан ифодаланади, бу эса, бир томондан, таълим-тарбия жараёни субъектларининг шахсий соҳасини ривожлантиришга керакли таъсир кўрсатади, иккинчидан, педагогик тизимнинг жараёний компонентини шакллантиришга ёрдам беради;

4) етарли даражада танланган педагогик шароитларни амалга ошириш замонавий педагогик тизимларнинг самарали ишлаши ва ривожланишини аниқлади.

Юқоридагилардан келиб чиқсан ҳолда, бизнинг тадқиқотимизда педагогик шароитларни педагогик тизимнинг етакчи компонентларидан бири сифатида кўриб чиқамиз, бу эса ОТМнинг касбий-таълим соҳасидаги имкониятларини акс эттиради, бу субъектларнинг ўзаро таъсиrlари мақсадли тарзда ишлаб чиқилган чора-тадбирларида, шунингдек, таълим жараёни субъектларининг шахсий соҳасини ривожлантиришга таъсир қилувчи бошқа омиллар билан ифодаланади. Тадқиқотимизда биз олий касбий таълимни модернизатсия қилиш нуқтаи назаридан ОТМ битирувчилари рақобатбардошлигини ошириш муаммосини ҳал қилишнинг икки асосий жиҳатини мажбурий ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши мумкин бўлган вазиятдан келиб чиқамиз [3-4]:

- таълим-тарбия жараёни субъектлари ўзаро таъсирининг табиати ва мазмунини очиб берувчи педагогик жиҳат;

- педагогик стратегиянинг концептуал модели доирасида ОТМ битирувчиларининг рақобатбардошлигини ошириш омили сифатида техника ОТМ касбий-таълим соҳасидаги талабаларни ўқитиш ва тарбиялашни ташкил этиш масалаларини очиб берувчи ташкилий жиҳат.

Шу муносабат билан ОТМнинг битирувчиларини рақобатбардошлигини ривожлантиришнинг ташкилий-педагогик шартлари биринчи ўринга чиқмоқда. Олимларнинг асарларидаги ушбу атамага кенгрок тушунча берилган (1-жадвал):



“Педагогик шарт-шароитлар” консепсиясини комплекс таҳлил қилиш хусусиятлари.

Хусусиятлари	Мазмуни
